



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**



**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA
AGROTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**“Oliy o‘quv yurtlarida chet va
ona tillarini o‘qitishning dolzarb
muammolari” mavzusidagi
xalqaro ilmiy anjumaning**

MATERIALLAR TO‘PLAMI

25-26-APREL 2025-yil

Termiz-2025





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**



**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA
AGROTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**“Oliy o‘quv yurtlarida chet va ona
tillarini o‘qitishning dolzarb
muammolari” mavzusidagi
xalqaro ilmiy anjumaning**

MATERIALLAR TO‘PLAMI

25-26-APREL 2025-y

Termiz-2025

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA XORIJIY TILLARNI AKADEMIK VA KASBIY
MAQSADLARGA MUVOFIQ O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI**

TerDMAU 25-26-aprel 2025-yil

Ushbu to'plamda Oliy ta'lim muassasasalari va ilmiy-tadqiqot institutlarida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchi va talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari e'lon qilingan. Anjuman materiallari O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi "2025-yilda xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2024-yil 27 dekabrda 490-sonli buyrug'iga asosan bajarildi

Mas'ul muharrir:

B.Primkulov - Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti rektori v.v.b

Tahrir hay'ati

M.Urozov	<i>Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, tashkiliy qo'mita raisi</i>
M. Majitov	<i>Yoshlar masalalari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais o'rinbosari</i>
Sh.Jumayev	<i>Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i</i>
A.Turakulov	<i>"Iqtisodiyot, o'rmonchilik va veterinariya" fakulteti dekani</i>
V.Sakbayeva	<i>O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri</i>
B.Shukurova	<i>"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasini dotsenti v.b., Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)</i>
N.Madalov	<i>Termiz davlat pedagogika instituti "Amaliy ingliz tili" kafedrasini mudiri, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent,</i>
A.Jorabekova	<i>M.Auezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti texnika mutaxassisliklari bo'yicha xorijiy tillar kafedrasini mudiri, fan nomzodi, dotsent</i>
V.Shoy Nazarova	<i>"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasini katta o'qituvchisi</i>
N. Babahodjayeva	<i>"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasini katta o'qituvchisi</i>
Sh. Jumayeva	<i>"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasini katta o'qituvchisi</i>
M. Xaydarova	<i>"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasini katta o'qituvchisi</i>
Yu. Yarmatova	<i>"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasini katta o'qituvchisi</i>
G.Sultonova	<i>"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasini assistenti</i>
Sh. Raxmatova	<i>"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasini assistenti</i>
N.Xudoyorova	<i>"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasini assistenti</i>

va vositalarini to'g'ri tanlash, talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarini baholashni aniq mezonlarini oldindan ishlab chiqish, mashg'ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni to'g'ri amalga oshirish va bir-biri bilan uyg'unlashuviga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

Keyingi yillarda

adabiyotlarda "pedagogik texnologiya", "zamonaviy pedagogik texnologiya", "o'qitish texnologiyasi" kabi tushunchalar keng qo'llanilmoqda. Ko'pgina pedagoglar "ta'lim texnologiyasi" hamda "pedagogik texnologiya" tushunchalari mazmunan bir xil ma'noni anglatishini ta'kidlamoqdalar.

Ta'lim-tarbiya muassasalarini faoliyatiga doir turli hujjatlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuvlar olib borish ishlarini amalga oshirish ham pedagogik tajriba-sinovlarga yordam beradi. Hozirgi zamon sharoitida, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda, o'qitishning hozirgi zamon tizimlari va yangi pedagogik texnologiyalari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Yangi pedagogik texnologiyalarni hislati shundaki, unda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov Yusuf, Qosimov Asroriddin, "Innovatsion ta'lim texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishning metodik-didaktik asoslari" Toshkent "Yangi nashr" 2018.
2. Поульсен, Серен. Введение в современную методику преподавания. Пер. с датск. яз.- Бишкек Кесип 2007
3. Сайидхмедов Н. Янги педагогик технологиялар - Тошкент Молия, 2003

INNOVATION TA'LIM TEXNALOGIYALARINING ASOSI

Ashurova S.F.

Termiz muxandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya: Maqolada asosan, ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarini qo'llash orqali o'quv jarayonida, innovatsion texnologiyalarni joriy etish shuningdek, O'quv jarayonini tashkil etishda, uning metodikasiga zamonaviy ta'lim texnologiyalarni joriy qilishga aloxida e'tibor qaratilgan. Shu maqsadda ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'qituvchilar tomonidan o'zlashtirib olinishiga ko'maklashish maqsadida o'quv-metodik seminarlar to'g'risida asoslar keltirilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, pedagogik pragnostika, talim subekti, ta'lim metodi, suxbat metodi.

Jamiyat hayotining jadal tarzda rivojlanishi, taraqqiyot ehtiyojlari va imkoniyatlarning kengayishi, turli tuman axborotlar oqimining tezlashishini hisobga olib, innovatsion pedagogik texnologiya fani, pedagogik pragnostikaning yangi shakl, vosita va metodlaridan foydalanish mexanizimlarini yaratishni o'z zimmasiga olmog'i talab etiladi. Bugungi kunda turli tipdagi ta'lim

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Махмудов Ю.Ф., Қосимов А.С. Инновацион таълим технологияларидан ўқув жараёниларидан фойдаланишнинг методик-дидактик асослари. Тошкент. 2018 й. 196 бет.
2. Yo'ldoshev J., Xasanov S. Pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma - Toshkent. Iqtisod-Moliya, 2009.
3. G'aybullayev N. va boshqalar. Pedagogika. Ma'ruzalar matni – Toshkent: O'zMU, 2005.
4. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent: O'qtuvchi, 2004.

**ELEKTROMAGNETIZM BO'LIMIDAN MUAMMOLI MASALALAR
YECHISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV.**

O'.N.Sultonova

Termiz muxandislik-texnologiya instituti p.f.d.dots.

Annotatsiya. Bugun Oliy ta'lim tizimida katta islohotlar va yangiliklar amalga oshirilmoqda. Shunga ko'ra tabalabalarga har bir fanning mazmunini chuqur singdirish va har bir fan doirasida malakali kadr tayyorlash masalalari ayni ustivor mavzulardan biridir. Ushbu maqolada muallif Oliy ta'lim muassasalarida fizika fanining o'qitilishi va har tomonlama rivojlantirish, shuningdek, fizikani o'qitishda induksiya, deduksiya metodlaridan foydalanish haqida batafsil bayon qiladi.

va ilmiy-tadqiqot muassasalarida fizika ta'limini rivojlantirish, fizikaning elektromagnetizm bolimini o'qitishda induksiya, deduksiya metodlaridan keng foydalanish, xalqaro baholash dasturini tatbiq etish, takomillashtirish, fizika o'qitishda integrativ yondashish asosida ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, ta'limda innovatsion axborot texnologiyasini joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Maqolaning maqsadi. Texnika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnik muxandislarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning metodik asoslarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan, hamda o'qitish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv talabani shaxsiy maqsadlari va vazifalari bilan ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchisiga aylanadi. Ushbu yondashuv talabani faol, ongli faoliyatga jalb qilish, axborot, kommunikativ, ta'lim va bilish qobiliyatlarini, shaxsiy salohiyatini rivojlantirish, o'z-o'zining qadr-qimmatini shakllantirish, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Talaba qobiliyati uning kompetensiyasi orqali namoyon bo'ladi. Talaba fazilatlar, motivatsiyasi, qobiliyati kombinatsiyasini quyidagicha vektor shaklida ko'rsatish mumkin va uning tarkibi, bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiya to'plami sifatida tahlil qilinadi.

Demak, kompetentlik bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy xususiyatlar yig'indisidan iborat. Talabalarda kompetensiyalarni shakllantirishni quyidagi uch turga bo'ladilar:

1. Metapredmet kompetensiyalari (tayanch kompetensiyalar).
2. Predmet-lararo kompetensiyalar.
3. Predmetga oid kompetensiyalar.

Metapredmet kompetensiyalar – bu “predmetdan oldin”, “predmet ustida” degan ma'noni bildiradi. Buning sababi shundaki, inson jamiyatda muvaffaqiyatli yashashi uchun ma'lum bir turdagi layoqatlarga, qobiliyatlarga, malakalarga ega bo'lishi kerak. Jumladan, o'z fikrini ravon tushunarli holda og'zaki va yozma tarzda bayon qila olishi, zaruriy axborotlarni izlab topa olishi va undan foydalanishi, jamiyatda faol bo'lishi, o'z-o'zini doimiy rivojlantirishi va h.k.